

**ABU HANIFA RAHMATULLOHI ALAYH HAYOTI VA IJODI**

**Zokirov Izzatulloh**

Xoja Buxoriy o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi 4-bosqich talabasi.

[zokirovizzatulloh02@gmail.com](mailto:zokirovizzatulloh02@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17617069>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Islom olamining buyuk allomalaridan biri — Imom A'zam Abu Hanifa No'mon ibn Sobit rahmatullohi alayhning hayoti, ilmiy merosi va fiqhiy faoliyati yoritilgan. Unda Abu Hanifaning tug'ilishi, nasl-nasabi, ilmga kirib kelish tarixi, ta'lim olgan ustozlari va u zot haqida ulamolarning fikrlari haqida ma'lumotlar berilgan. Maqolada shuningdek, u kishining "Fiqhul Akbar" asarining ahamiyati, aqoid va fiqh ilmidagi o'rni, shogirdlari — Abu Yusuf va Muhammad Shayboniy kabi buyuk ulamolarning ilmiy faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot Imom A'zamning ilm, taqvo va ixlosga asoslangan hayoti, musulmon ummatiga qoldirgan ma'naviy merosining bugungi kundagi ahamiyatini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** Imom A'zam, Abu Hanifa, fiqh, aqoid, hanafiylik, ilmiy meros, tobe'in, Fiqhul Akbar.

Islom dini – insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlovchi, adolat, tinchlik va mehr-oqibatni targ'ib etuvchi buyuk din. Islom tarixida Qur'on va hadis ilmlarini chuqur o'rganib, ularni sharhlagan va musulmonlarga amaliy yo'l-yo'riq ko'rsatgan buyuk allomalar o'tgan. Ular orasida to'rtta mashhur fiqhiy mazhab asoschilari alohida o'rin tutadi. Ulardan biri – Imom A'zam Abu Hanifa Nu'mon ibn Sobit rahmatullohi alayhdir.

Abu Hanifa No'mon ibn Sobit ibn Zutiy Kufada shahrida hijriy 80-sanada tavallud topdilar. U kishi fiqhiy mazhablar boshliqlari ichida eng avval tug'ilganidirlar.

Abu Hanifa rahmatullohi alayhning otalari Sobit ibn Zutiy asli fors bo'lgan. Bobolari esa asli "Kobul" shahridan bo'lgan. Otalari Termiz, Nasa va Anbor shaharlarida yashab, oxiri Kufada qaror topgan hamda Abu Hanifa rahmatullohi alayh ayni shu shaharda dunyoga kelganlar.

Abu Hanifa rahmatullohi alayhning otalari Ali roziyallohu anhu bilan uchrashgan va o'ziga hamda zurriyotiga baraka tilab, u kishining duolarini olgan edi.

Ko'pchilik tarixchilar Imomi A'zam rahmatullohi alayhni tobe'inlardan keyingi avlod musulmonlaridan, deyishadi. Ammo ba'zilar u kishining tobe'in bo'lganlarini, sahobalardan Anas ibn Molik roziyallohu anhuri ko'rib, u kishidan «Talabi ilm har bir musulmonga farz-dir», hadisini rivoyat qilganlarini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, Abu Hanifa rahmatullohi alayh Abdulloh ibn Abu Avfo, Vosila ibn al-Aska, Omir ibn Vosila roziyallohu anhum kabi sahobalar bilan ham ko'rishganlar. Ammo ularning suhbatlarida bo'lmaganlar. Sahobani ko'rgan shaxs tobe'in bo'ladi, degan ulamolar «Abu Hanifa rahmatullohi alayh tobe'in bo'lgan», deyдилar. Sahobani ko'rsa-yu, suhbatini topmasa, tobe'in bo'lmaydi, deyдigan ulamolar «Abu Hanifa rahmatullohi alayh tobe'in bo'lmagan», deyдилar.

Abu Hanifa rahmatullohi alayh o'sha vaqtdagi katta shahar bo'lgan Kufada o'sdilar.

Kichikliklarida qiroat ustozlarining boshlig'i imom Osim ibn Abu Najuddan Qur'oni Karimni yod oldilar. Yoshliklaridan tahsili ilm qildilar, bir vaqtning o'zida kasb ham qilar edilar.

Ilm majlislardan ko‘ra bozorda ko‘p bo‘lar, ipak sotar edilar. Ko‘pchilik u kishidagi aql-zakovat va o‘tkir zehn tufayli ilmga qattiq kirishishi lozimligini ta’kidlashardi. Oxiri bu fikr Abu Hanifaning o‘zlariga etkazildi.

Ibn Hajar al-Makki shunday yozadi:

«Abu Hanifa aytdiki:

“Bir kuni imom Shabiyning oldidan o‘tib qoldim. U o‘tirgan ekan. U meni oldiga chaqirib:

“Kimga aralashasan?” dedi.

“Bozorga aralashaman”, dedim.

“Bozorni aytayotganim yo‘q. Ulamolarga aralashishni aytyapman”, dedi.

“Men ularga oz aralashaman”, dedim.

“Unday qilma! Ilmga nazar sol! Ulamolar majlisiga bor! Men senda sergaklik va harakatni ko‘ryapman”, dedi.

Uning gapi menga ta’sir qildi. Bozorga borishni tark qilib, ilm olishni boshladim. Uning so‘zi ila Alloh menga manfaat berdi.”»

Manbaalarda imom Abu Hanifa rahmatullohi alayh “Abu Hanifa” ya’ni "Hanifani otasi" kunyasi bilan mashhur bo‘lgani zikr etiladi. U zot o‘z davrining eng taqvodor, zohid va ibodatga berilgan kishilaridan biri bo‘lganligi uchun shunday deb kunyalangan. Ba’zi rivoyatlarda aytilishicha, unga bu kunyani Iroq lahchasida “Hanifa” deb nomlangan siyohdon sababli berilgan. Imom doimo shu siyohdonni o‘zi bilan olib yurardi. Shu bois u “Abu Hanifa” deb atalgan. Boshqa manbalarda “Hanifa” so‘zi “millati hanifiyya”, ya’ni "Ibrohim alayhissalomning to‘g‘ri yo‘li" dan olingani qayd etiladi. Bu esa Imom Abu Hanifaning e’tiqodiy poklik va to‘g‘rilikda hanafiylik yo‘lini davom ettirganini anglatadi.

Yana bir rivoyatda, uning “Hanifa” ismli qizi bo‘lgani sababli “Abu Hanifa” deb atalgan, degan fikr keltiriladi. Ammo bu rivoyat ishonchli manbalarda tasdiqlanmagan, chunki Imom Abu Hanifaning Hammod ismli o‘g‘lidani boshqa farzandi bo‘lmagan.

Dastlab u kishi aqoid ilmini o‘rgandilar. Kalom ilimida dong taratdilar. Abu Hanifa rahmatullohi alayhning "Fiqhul Akbar" asari aqoid ilmiga bag‘ishlangan dastlabki asar hisoblanadi. Asarda qisqa va lo‘nda tarzda aqli raso bo‘lgan musulmon qanday e’tiqod qilishining xulosasi bayon etilgan. Bu matn sahobalar asriga eng yaqin davrda yozilgani uchun ham aqliy dalillarga kirishilmagan. Chunki bunga ortiqcha ehtiyoj bo‘lmagan. Fiqhul akbar asariga turli asrlarda o‘ttizdan ortiq sharhlar va hoshiyalar yozilgan.

Yahyo ibn Shaybondan qilingan rivoyatda Abu Hanifa rahmatullohi alayh quyidagilarni aytganlar:

«Men kalomda tortishish qobiliyati berilgan odam edim. Bir muddat unga aralashib yurdim, talashdim, tortishdim. Xusumat va mujodala sohiblarining ko‘plari Basrada edi. Bas, Basraga yigirma martadan ortiqroq bordim. Bir yil, undan ko‘p yoki ozroq turdim.

Xavorijlarning Aboziya, Sufriya degan toifalari va boshqalar bilan nizolashdim. Usha paytda kalomni ilmlarning afzali deb bilar edim. Bu kalom dinning aslidir, der edim. Unda bir muddat umrim o‘tganidan keyin o‘zimni o‘zim tergadim. Tadabbur qildim.»

Abu Hanifa rahmatullohi alayhining tobe'inlardan ilm olgani haqida hech qanday shubha yo'q. U kishi quyidagi zotlardan ilm olganlar:

1. Imom Sha'biy. Asarga ko'p etibor bergan zot edi.
2. Ikrima roziyallohu anhu. U kishi Ibn Abbos roziyallohu anhuning shogirdi edi.
3. Nofe' roziyallohu anhu. U kishi Ibn Umar roziyallohu anhuning shogirdi edi.
4. Ato ibn Abu Raboh roziyallohu anhu. Ibn Abbosning ilmi o'sha kishida edi. Abu Hanifa rahmatullohi alayhi u kishi bilan Makkada uchrashgan va ilm olib, munoqashalar qilgan.

Keyinchalik Abu Hanifa rahmatullohi alayhi fiqhga ruju' qo'ydilar. O'sha vaqtning katta mashoyixlaridan dars oldilar. Bu haqida o'zlari quyidagilarni aytadilar:

“Men ilm va fiqhning konida edim. Uning ahli ila majlis qurdim. Ularning fuqohalaridan bir faqihni lozim tutdim”.

O'sha faqih, avval aytib o'tilganidek, Hammud ibn Sulaymon edi. Imomi A'zam u kishidan fiqhni to'la egalladilar. Ustozlari vafot etguncha birga bo'ldilar. Imom A'zam rahmatullohi alayhi o'n sakkiz yil davomida Hammud ibn Sulaymondan fiqh ilmini o'rgandilar.

“Tarixi Bag'dod” kitobida imom Zufardan Abu Hanifa rahmatullohi alayhining Hammud haqidagi quyidagi xotiralari rivoyat qilinadi:

“O'n yil uning suhbatida bo'lganimdan keyin nafsım riyosatni tilab qoldi. Undan ajrab, o'zim uchun alohida halqa qurmoqchi bo'ldim. O'sha ishni qilish maqsadida bir kuni kechqurun masjidga chiqdim. Masjidga kirib, unga ko'zim tushganida, undan ajrashni ko'nglim ko'tarmadi.

Borib, oldiga o'tirdim.

O'sha kuni Basrada uning qarindoshi vafot etgani haqida xabar keldi. O'sha kishining undan boshqa merosxo'ri yo'q ekan. Menga o'zining o'rniga o'tirishimni amr qildi. Men savollarga bergan javoblarimni yozib bordim. U qaytib kelganida masalalarni ko'rsatdim.

Ularning soni oltmishta edi. U qirqtasini to'g'ri, yigirmatasini noto'g'ri dedi. Shunda o'lgunicha undan ayrilmaslikka qasam ichdim va o'lgunicha undan ayrilmadim.”

Shu bilan birga, Abu Hanifa rahmatullohi alayhi boshqa ustozlardan ham dars olar edilar.

U kishi juda ko'p haj qilar, Makka va Madinada ko'plab ulamolar bilan ilm majlislari qurar edilar. Tobe'inlardan ko'plab hadislar rivoyat qilar va fiqh muzokarasi olib borar edilar.

Abu Hanifa rahmatullohi alayh Zayd ibn Ali ibn Husayn, Ja'far Sodiq, Abdulloh ibn Hasan Nafsuza'kiya va boshqa ulug' kishilardan ham ilm olgan.

Imom Abu Ja'far Tahoviyning "Sharhi Maonil osor" kitobida Abu Hanifa rahmatullohi alayhning 4000 atrofida ustozlari bo'lgan deb ham keladi.

Abu Hanifa rahmatullohi alayhining shogirdlari juda ham ko'p bo'lganidan, ularni nomma-nom zikr qilib o'tishning o'zi mushkul ish. Shuning uchun Abu Hanifa rahmatullohi alayhining eng mashhur shogirdlaridan ba'zilarini esga olamiz.

1. Ya'qub ibn Ibrohim ibn Habib Ansoriy. U kishi Abu Yusuf kunyasi bilan mashhurdirlar. Abu Yusuf Abu Hanifa rahmatullohi alayhidan keyin o'ttiz ikki yil o'tib, vafot etganlar.

2. Muhammad ibn Hasan Shayboniy rahmatullohi alayh. Hijriy 132-sanada tug'ilib, hijriy 189-sanada vafot etgan. Muhammad ibn Hasan Shayboniy rahmatullohi alayhiga Abu Hanifa rahmatullohi alayhidan uzoq vaqt dars olish nasib qilmagan. Ammo u kishi tahsili ilmni Abu Yusuf rahmatullohi alayhining huzurlarida davom ettirgan.

Bulardan boshqa yana ko'plab shogirtlari bo'lgan. Imom A'zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh umrlarining so'nggi yillarini ham ibodat, ilm va ta'lim bilan o'tkazdilar. U zot kechayu kunduz Qur'on o'qish, hadislarni o'rganish va talabalariga fiqh darslarini o'tish bilan mashg'ul edilar.

Imom A'zamning taqvosi va bandalikdagi sobitligi hayotlarining oxirigacha davom etdi.

U zot namozni doim jamoat bilan ado etar, ko'p ro'za tutar, tunda tahajjud namozini qoldirmas edilar. Rivoyatlarda kelishicha, u zot 40 yil davomida bomdod namozini xuftonning tahoratida o'qiganlar.

Hayotlarining oxirlarida ham Alloh taolodan doim mag'firat so'rab, "Allohim, ilmni menga foydali qil va meni rahmatingdan ayirma", deb duo qilganlar.

Imom A'zam 150-hijriy yilda (milodiy 767 y.) Bag'dod shahrida vafot etdilar. U zotning qabrlari bugungi kunda ham u yerda bo'lib, musulmonlar ziyorat qiladilar.

U zotning hayotining so'nggi yillari ham sabr, taqvo va ilm bilan bezatilgan edi.

Alloh taolo Imom A'zam Abu Hanifa rahmatullohi alayhni o'z rahmatiga olgan bo'lsin, bizni ham u zotning ilm va taqvo yo'lidan yuruvchi bandalaridan qilsin.

#### **Foydalanilgan manbaalar ro'yxati:**

1. Zakariyo al-Kandahlaviy. "Avjaz al- masolik" 1-jild, 176-bet. "Dar al- qolam" nashriyoti. Damashq.
2. Imom Fariduddin ibn al-U'la "Fatavoyi Tatarxoniyya" 1-jild, 40-bet." Murod obod" nashriyoti. Hindiston.
3. Abu Bakr Ahmad ibn Ali al-Xatib al-Bag'dodiy. "Tarixi Bag'dod" 13-jild. "Bayrut" nashriyoti.
4. Imom Ja'far Tahoviy. "Sharhi Maonil osor".
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Kifoya" 1-juz. "Hilol nashr" nashriyoti.
6. Abdulqodir Abdur Rahim. "E'tiqod durdonalari". "Hilol nashr" nashriyoti.